

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SADRIDDINOVA LATOFAT HUSNIDDIN QIZI

**JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA SUD QARORLARINI APELLATSIYA
TARTIBIDA KO‘RIB CHIQISHNI TAKOMILLASHTIRISH
ISTIQBOLLARI**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Sadriddinova Latofat Husniddin qizi

Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini apellatsiya tartibida ko'rib chiqishni takomillashtirish istiqbollari.....3

Садриддинова Латофат Хусниддиновна

Перспективы совершенствования рассмотрения судебных решений по уголовным делам в апелляционном порядке..... 25

Sadriddinova Latofat Husniddin qizi

Prospects for improving the appellate review of court decisions in criminal cases.....50

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works55

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

SADRIDDINOVA LATOFAT HUSNIDDIN QIZI

**JINOYAT ISHLARI BO‘YICHA SUD QARORLARINI APELLATSIYA
TARTIBIDA KO‘RIB CHIQISHNI TAKOMILLASHTIRISH
ISTIQBOLLARI**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,
tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Yu1489 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim tarmog‘i portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Suyunova Dilbar Joldasbayevna
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Tulaganova Gulchehra Zahitovna
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Kuchkarov Xayrulla Zikirillayevich
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 07-noyabr soat 16.00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +998971 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1440-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 23-oktabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 23-oktabrdagi 61-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

I.B. Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

D.B. Bazarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rish institutini sud amaliyotida qo'llash natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi instansiya sudi tomonidan chiqarilgan hukmlar bekor qilinishi va o'zgartirilishi holatlarining sezilarli darajada oshib borayotganligi, jumladan, "2020-yilda ayrim xorijiy davlatlarning yuqori instansiya sudlari tomonidan o'rtacha hisobda 3,8 foiz jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlari bekor qilingan va o'zgartirilgan bo'lsa, 2025-yil yakuni bo'yicha mazkur ko'rsatkich deyarli 7,6 foizga oshganligi"¹ aniqlandi. Bu holatlar jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlariga shikoyat (protest) qilish birinchi instansiya sudi hukmlarining talab darajasida emasligidan dalolat beradi. Criminal Cases Review Commission ma'lumotlariga ko'ra², 2025-yil sentabr oyi yakuniga ko'ra, Yevropa Ittifoqi jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 1997-2025-yillar davomida 603 ta (68,2%) sud qarorlari bekor qilingan va o'zgartirilgan, faqat 238 ta (26,8%) sud qarorlari o'z kuchida qoldirilgan, 18 ta (2%) apellyatsiya shikoyatlari qaytarilgan. Ayni paytda ushbu sudlarda apellyatsiya sudi jarayoni qonunda belgilangan muddatlarda ko'rilmayotganligi, shu bois shaxsning huquqlari talab darajasida himoya qilinmayotganligini ko'rsatadi. Bu esa jinoyat ishlarini apellyatsiya tartibida ko'rib chiqish protsessual tartibini, shu jumladan, ushbu instansiy sudi vakolatlarini, jinoyat ishi ko'rib chiqish muddatlari kabi masalalarni takomillashtirishni taqozo etadi.

Jahonda jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish instituti ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilib sud hukmiga yuqori instansiya tartibida shikoyat qilish, uning qonuniyligi, asosli va adolatligini tekshirish tartibi yuzasidan bir qancha fikrlar bildirilgan. Jumladan, Lynch Gerard birinchi instansiya sudi hukmini yuqori instansiya sudida ko'rib chiqishda uning protsessual tartibi alohida nazarda tutilmaganligini ta'kidlagan³. Shu bilan birga ayrim xorijiy davlatlarda birinchi instansiya sudi hukmiga shikoyat qilish tartibi aniq belgilanmaganligi, yuqori instansiya sudlarida prokurorning vakolatlari yetarli darajada tahlil qilinmaganligi, shuningdek, jinoyat ishi bo'yicha aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan protsessual harakatlarni amalga oshirish tartibi chuqur o'rganilmaganligi kuzatiladi. Shu sababli jinoyat protsessida sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish institutining mazmun-mohiyati, shu jumladan, jinoyat ishlarini apellyatsiya tartibida ko'rib chiqishda shaxs huquqlarini ta'minlash, ushbu sud jarayonini zamonaviy takomillashtirish, ishda ishtirok etuvchi taraflarning vakolatlarini aniq belgilash hamda apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan chiqarilayotgan qarorlarni qabul qilish jarayonini qonunlarga rioya qilishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish zaruriyatini ko'rsatadi.

Respublikamizda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari asosida keng qamrovli dasturiy tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning

¹ The Federal Courts of the United States. URL: <https://www.uscourts.gov/>

² <https://cerc.gov.uk/facts-figures/>

³ Lynch Gerard E. Op. cit. P. 2117-2151; Rosenberg Benjamin E. Revisiting our administrative system of criminal justice // 27 Res Gestae. 13.03.2017. P.9-23.

taraqqiyot strategiyasida “...Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish, jumladan, jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish”¹ kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarga muvofiq, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirish maqsadida sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqlandi². Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi 2023-yil 27-sentabrdagi O‘RQ–869-son “Sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun asosida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Ushbu vazifalar jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarorlarini qayta ko‘rib chiqish institutini shu jumladan, apellyatsiya instansiyasi sudida ish yuritish tartibini tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF-4850-son “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 30-noyabrdagi PF-5268-son “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 16-yanvardagi PF–11-son “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida apellyatsiya instansiyasi sudining o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy-huquqiy tahliliga bag‘ishlangan kompleks tadqiqot ishi hisoblanadi. Mazkur mavzuning ayrim jihatlarini U.A.To‘xtasheva, X.Z. Kuchkarovlar tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, ayrim milliy olimlarning shu jumladan, G‘.A. Abdumajidov, D.S. Dovudova, O.M. Madaliyev,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvaridagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni // www.lex.uz.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son

B.A. Muminov, Z. Inog'omjanova, F.M. Muhitdinov, B.X. Po'latov, M.X. Rustambayev, S.M. Raxmonova, D.J. Suyunova, D.B. Bazarova, G.Z. Tulaganova, D.D. Vaxabovlarning ilmiy ishlarida jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirish muayyan darajada o'rganilgan.

Ayni paytda, respublikada jinoyat-protsessual qonunchiligiga sud qarorlarini qayta ko'rishga oid bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi sababli muammoning dolzarbligi yanada ortmoqda. Ushbu o'zgarishlar sud qarorlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko'rish masalasiga bevosita daxldor bo'lganligi bois chuqur va mustaqil tadqiqot o'tkazishni taqozo etadi.

MDH mamlakatlari olimlari, jumladan, N.G. Stoyko, L. Nurlumbayeva, A. Akhpanov, F. Abdullayev, R. Gurbanov, G.V. Jafarov, I. Garibli, Y.S. Shmelova, N.N. Kovtun, N.S. Kalinina, K.A. Komogortseva, M.A. Umarova, I.V. Dikova, V.V. Vandishev, K.V. Kamchatov, I.V. Chashina, Y.V. Velikaya, A.A. Vasyayev, O.V. Devyatova, L.G. Tatyana, A.N. Savchenko, K.F. Gutsenko, V.A. Azarov, L.A. Bogoslovskaya, I.Y. Beregova, P.A. Lupinskaya, A.P. Rijakov, A.V. Smirnov, F.V. Kuzmenko, K.M. Baadji va boshqa protsessualist olimlar o'z tadqiqot ishlarida jinoyat ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko'rishning umumiy asoslari bilan bog'liq masalalarni o'rganan.

Xorijiy huquqshunos olimlardan Orfild, B.Lester, R.Leger, Daniel Klerman, Zuckerman Adrian, Friedenthal Miller va boshqalar apellatsiya instansiyasi sudining ayrim nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilishgan¹.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ishlari ilmiy izlanishlar davridagi qonunlar asosida yuqori sud instansiyalarining mohiyati, turlari, vakolatlarini amalga oshirish tartibini yoritishga bag'ishlangan. Ayni paytda esa milliy jinoyat-protsessual qonunchiligimizda sud qarorlarini qayta ko'rish institutiga oid bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi munosabati bilan mavzuning dolzarbligi yanada ortadi va shaxsning jinoyat ishi bo'yicha sud qarorlarini shikoyat qilish huquqlarini takomillashtirishi chuqur tadqiqot o'tkazishni taqozo etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini apellatsiya tartibida ko'rib chiqishni takomillashtirish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat protsessida sud qarorlarini qayta ko'rishda apellatsiya instansiyasi sudining o'rni va o'ziga xos jihatlarini kompleks tahlil qilish, ayrim xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish orqali uning qo'llanish samaradorligini oshirishga qaratilgan jinoyat-protsessual normalarini yanada takomillashtirish yuzasidan nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqish va ularni asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat ishlarini apellatsiya instansiyasi sudida qayta ko'rish institutining nazariy tahlil qilish, uning ijtimoiy zaruratini o'rganish;

¹ Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

milliy qonunchilikda jinoyat ishi bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish institutining rivojlanish genezisini tadqiq etish;

jinoyat protsessida apellatsiya instansiyasi sudining ahamiyatini ochib berish;
jinoyat ishini qayta ko'rib chiqishda apellatsiya instansiyasi sudining mazmuni va mohiyatini tahlil qilish;

jinoyat ishini apellatsiya instansiyasi sudida ko'rib chiqishning protsessual tartibini ilmiy-nazariy tahlil qilish;

sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshirishda apellatsiya instansiyasi sudining huquqlari va vakolatlarini tavsiflash;

ayrim xorijiy davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida apellatsiya instansiyasi sudining huquqiy ahamiyatini o'rganib chiqish;

odil sudlovni amalga oshirishda apellatsiya instansiyasi sudining roli va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

sud qarorlarini apellatsiya instansiyasi sudida qayta ko'rib chiqish mexanizmini zamonaviy yangilash asosida tavsiya va takliflarni shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini apellatsiya tartibida ko'rib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini jinoyat ishlarining apellatsiya instansiyasi sudida qayta ko'rish institutini protsessual tartibga soluvchi qonun normalari, sud amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda yuridik fanida mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot bilishning ilmiy usullaridan – tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil va statistik usullar, shuningdek, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jinoyat ishlari materiallari va sud amaliyotini o'rganish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxsning shikoyat qilish huquqini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqib, apellatsiya tartibida shikoyat bermagan protsess ishtirokchisi, agar apellatsiya instansiyasi sudi ajrimida uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor xulosalar qilinmagan bo'lsa, sud qarori ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish huquqini saqlab qolishi lozimligi asoslantirilgan;

apellatsiya instansiyasi sudida qonuniy, asosli va adolatli hukm qabul qilish, shaxs huquq va manfaatlarini ta'minlash, odil sudlovni amalga oshirish imkoniyatini kengaytirish maqsadida, apellatsiya instansiyasi sudi apellatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ishning haqiqiy holatlari to'liq aniqlanganligini va Jinoyat kodeksining normalari to'g'ri qo'llanganligini, ish yuritishni amalga oshirish chog'ida ushbu kodeks normalariga rioya etilgan-etilmaganligini, birinchi instansiya sudi hukmining, ajrimining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini ishda mavjud bo'lgan hamda apellatsiya, kassatsiya instansiyasi sudi tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirilgan dalillar asosida baholash lozimligi asoslantirilgan;

jinoyat-protsessual qonunchiligimizda inson huquqlari ustuvorligini ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqib, sud jinoyat ishini apellatsiya tartibida ko'rishda shikoyat (protest) vajlari bilan chegaralanmaydi va ishni barcha mahkumlarga, shu jumladan, tegishli shikoyatni bermagan shaxslarga yoki o'ziga nisbatan shikoyat (protest)

berilmagan mahkumlarga nisbatan ham to'la hajmda tekshirishi lozimligi asoslantirilgan;

jinoyat ishini ko'rish muddatini ayrim sabablarga ko'ra uzaytirilish holatlarining oldini olish zaruriyatidan kelib chiqib, apellatsiya tartibida ko'rib chiqayotgan sud tomonidan jinoyat ishini ko'rib chiqish davomiyligi uni ko'rib chiqish boshlangan kundan e'tiboran uch oydan oshmasligi kerakligi hamda mazkur muddat ish murakkab bo'lgan yoki uning hajmi katta bo'lgan, shuningdek, boshqa uzrli sabablar mavjud bo'lgan taqdirda, apellatsiya instansiyasi sudining ajrimiga ko'ra ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin ekanligi asoslantirilgan;

jinoyat ishini apellatsiya instansiyasi sudida ko'rish doirasi kengligi va shaxs huquqlari va manfaatlarini ta'minlash jinoyat-protsessual qonunchiligining ustuvor vazifalaridan bir ekanligi sababli ba'zi mahkumlarga daxldor bo'lgan, belgilangan muddatda yuborilgan apellatsiya shikoyati (protesti) biror sababga ko'ra apellatsiya instansiyasi sudiga boshqa mahkumlarning jinoyat ishi ko'rib bo'linganidan keyin kelib tushsa yoki o'tkazib yuborilgan muddat O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (keyingi matnda – JPK) 497⁵-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan tiklansa, shuningdek, mahkumning, uning himoyachisining yoxud qonuniy vakilining apellatsiya shikoyati, ushbu mahkumga doir ish protsessning boshqa ishtirokchisi bergan apellatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ko'rib chiqilganidan so'ng kelib tushgan bo'lsa, apellatsiya instansiyasi sudi bunday shikoyat (protest)ni ko'rib chiqishi va u bo'yicha hukm yoki ajrim chiqarishi shart ekanligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni mazmuniga ko'ra, prokuratura tizimi yagona markazlashgan tizim bo'lib, barcha prokurorlar yagona tuzilma doirasida faoliyat yuritilishi va bir xil qoidalarga bo'ysunishi sababli birinchi instansiya sudida davlat ayblovidan voz kechgan prokuror markazlashgan prokuratura organi nomidan xulosa qilgan deb apellatsiya tartibida aksincha mazmunda protest bildirishi maqsadga muvofiq emasligi asoslangan;

jinoyat ishi bo'yicha apellatsiya instansiyasi sudi sud tergovini to'liq o'tkazish, yangi hukm qabul qilish huquqiga ega bo'lganligi sababli, taraflar tortishuvi prinsipini apellatsiya instansiyasi sudi jarayoniga tatbiq etish maqsadida ushbu instansiyada prokuror davlat ayblovinu quvvatlash vakolatini amalga oshirishi kerakligi asoslangan;

jinoyat protsessida jamoatchilikning ishtiroki prinsipini apellatsiya instansiyasi sudi jarayonida ta'minlash maqsadida apellatsiya instansiyasi sudining tarkibiga xalq maslahatchilarni jalb etish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

jinoyat ishini apellatsiya instansiyasi sudida ko'rishda haqiqatni aniqlash prinsipini tatbiq etish, ish muhokamasida oshkoralik va shaffoflikni kafolatlash, protsess ishtirokchisini va uning huquqlarini so'zsiz ta'minlash maqsadida apellatsiya instansiyasi sudi jarayonini uzluksiz videoyozuvga yozib borish lozimligi asoslangan;

jinoyat ishini apellatsiya instansiyasi sudi muhokamasiga tayinlashda mahkumning qamoq ehtiyot chorasi muddati tugallangan bo'lsa, uni uzaytirish yoki bekor qilish yuzasidan prokuror iltimosnoma kiritishi nazarda tutilmaganligi, ushbu

masala mahkum, uning himoyachisi hamda prokuror ishtirokida JPK 245-moddasi talablari asosida ko‘rib chiqilishi shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari ta‘minlashidan kelib chiqib, agar mahkumga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo‘llangan bo‘lsa va uning muddati qonunda belgilangan tartibda o‘z nihoyasiga yetgan bo‘lsa, apellatsiya instansiyasi sudi jinoyat ishini tayinlash chog‘ida mahkumni qamoqda saqlash ehtiyot chorasini o‘zgartirish yoki bekor qilish masalasini sud majlisida taraflar ishtirokida ko‘rib chiqishi lozimligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llangan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonun hujjatlarining o‘zaro tahlil qilingani, sud amaliyoti bo‘yicha 80dan ortiq jinoyat ishlari hamda 145 ta apellatsiya instansiyasi sudi ajrim va hukmlari o‘rganilganligi, 100 nafarga yaqin huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari, o‘qituvchi, yurist va talabalar orasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnomaning anketa so‘rovi shakliga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar hamda amaliy taklif va tavsiyalardan ilmiy faoliyatda, sud qarorlarini qayta ko‘rish bilan bog‘lik huquqni qo‘llash amaliyotida, sudlarning jinoyat ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rishga oid huquqiy normalarni tahlil qilishda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda “Jinoyat-protsessual huquqi”, “Dalillar nazariyasi”, “Jinoyat protsessida sud qarorlarini qayta ko‘rib chiqish” modullarining ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, ushbu fanlardan darslik, monografiya, o‘quv va metodik qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jinoyat ishlarini apellatsiya instansiyasi sudida qayta ko‘rishni protsessual tartibga soluvchi qonun normalarini to‘g‘ri qo‘llanishida, sud qarorlarini apellatsiya tartibida qayta ko‘rish institutini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda, apellatsiya instansiyasi sudi ish yurituvini yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanilishi mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarorlarini apellatsiya tartibida ko‘rib chiqishni takomillashtirish istiqbollarini tadqiq etish natijalari asosida:

apellatsiya tartibida shikoyat bermagan protsess ishtirokchisi, agar apellatsiya instansiyasi sudi ajrimida uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor xulosalar qilinmagan bo‘lsa, sud qarori ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish huquqini saqlab qolishi haqidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2024-yil 25-martdagi 7-sonli “Jinoyat ishlarini apellatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rish amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 2025-yil 6-yanvardagi 08/11-25-son dalolatnomasi*). Ushbu taklif jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarori ustidan shikoyat qilish huquqini yanada samarali ta‘minlashga xizmat qiladi;

“apellatsiya instansiyasi sudi apellatsiya shikoyati (protesti) bo‘yicha ishning haqiqiy holatlari to‘liq aniqlanganligini va Jinoyat kodeksining normalari to‘g‘ri qo‘llanganligini, ish yuritishni amalga oshirish chog‘ida ushbu Kodeks normalariga

rioya etilgan-etilmaganligini, birinchi instansiya sudi hukmining, ajrimining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini ishda mavjud bo'lgan hamda apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan qo'shimcha ravishda tekshirilgan dalillar bo'yicha tekshiradi" taklifi O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 27-sentabrdagi 869-sonli "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan JPK 482-moddasining 1-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 23-iyundagi 3/dn-128-son dalolatnomasi*). Ushbu taklif jinoyat ishlarini apellatsiya tartibida qayta ko'rish jarayonida sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli qabul qilinishi uchun xizmat qiladi;

"sud jinoyat ishini apellatsiya tartibida ko'rishda shikoyat yoki protest vajlari bilan chegaralanmaydi va ishni barcha mahkumlarga, shu jumladan, tegishli shikoyatni bermagan shaxslarga yoki o'ziga nisbatan shikoyat (protest) berilmagan mahkumlarga nisbatan ham to'la hajmda tekshiradi" taklifi O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 27-sentabrdagi 869-sonli "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan JPK 483-moddasining 1-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 23-iyundagi 3/dn-128-son dalolatnomasi*). Ushbu taklif jinoyat ishlarini apellatsiya tartibida qayta ko'rish jarayonida shaxslarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, qonuniy, asosli hamda adolatli qaror chiqarilishi uchun xizmat qiladi;

"apellatsiya tartibida ko'rib chiqayotgan sud tomonidan jinoyat ishini ko'rib chiqish davomiyligi uni ko'rib chiqish boshlangan kundan e'tiboran uch oydan oshmasligi kerak. Mazkur muddat ish murakkab bo'lgan yoki uning hajmi katta bo'lgan, shuningdek, boshqa uzrli sabablar mavjud bo'lgan taqdirda, apellatsiya, tartibida ko'rib chiqayotgan sudning ajrimiga ko'ra ko'pi bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno" taklifi O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 27-sentabrdagi 869-sonli "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan JPK 484-moddasining 5-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 23-iyundagi 3/dn-128-son dalolatnomasi*). Ushbu taklif jinoyat ishlarini apellatsiya tartibida qayta ko'rish jarayonining sababsiz cho'zilib ketishi va mahkumning holatini og'irlashtirilishining oldini olishga xizmat qiladi;

"ba'zi mahkumlarga daxli bo'lgan, belgilangan muddatda yuborilgan apellatsiya shikoyati (protesti) biror sababga ko'ra apellatsiya instansiyasi sudiga boshqa mahkumlarning jinoyat ishi ko'rib bo'linganidan keyin kelib tushsa yoki o'tkazib yuborilgan muddat ushbu Kodeksning 497⁵-moddasida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan tiklansa, shuningdek mahkumning, uning himoyachisining

yoxud qonuniy vakilining apellatsiya shikoyati, ushbu mahkumga doir ish protsessning boshqa ishtirokchisi bergan apellatsiya shikoyati (protesti) bo'yicha ko'rib chiqilganidan so'ng kelib tushgan bo'lsa, apellatsiya instansiyasi sudi bunday shikoyat yoki protestni ko'rib chiqishi va u bo'yicha hukm, ajrim chiqarishi shart" taklifi O'zbekiston Respublikasi 2023-yil 27-sentabrdagi 869-sonli "Sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatligini tekshirish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksi 497³⁵-moddasining birinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 23-iyundagi 3/dn-128-son dalolatnomasi*). Ushbu taklif jinoyat ishlarini apellatsiya tartibida qayta ko'rish jarayonida protsess ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy konferensiyalarda, jumladan, 5 ta xalqaro, 1 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, ilmiy jurnallarda 10 ta maqola (shundan 3 ta xorijda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 9 ta paragrafni o'z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlariga mosligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jinoyat protsessida sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish institutining huquqiy asoslari**" deb nomlanib, unda sud qarorlarini apellatsiya tartibida qayta ko'rish institutining ijtimoiy shartliligi tushunchasi, uning huquqiy mohiyati va jinoyat-protsessual qonunchiligidagi o'rni, jinoyat protsessida sud qarorlarini apellatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish institutining genezisi xorijiy mamlakatlar huquqni qo'llash amaliyotida va milliy qonunchiligimizda apellatsiya instansiyasi sudining tarixiy evolyutsiyasi yoritilgan. Xususan, tadqiqot davomida milliy qonunchiligimizga apellatsiya instansiyasi sudining kiritilishi, uni qo'llashga

doir jinoyat-protsessual qonunchilik normalarining takomillashtirilishi bilan bog'liq huquqiy jarayonlarning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Mazkur bobda jinoyat ishi bo'yicha sud qarorlarini apellatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish jarayonini o'rganishda muallif sud qarorlarini qayta ko'rish asoslari yuzasidan bir qator olimlar, jumladan, F.F. Muxitdinova, F.M. Muxitdinov, F. Dumayev, V.N. Galuzo, N.N. Kovtun, U.A. To'xtasheva, Z.F. Inog'omjonova, D. Dovudova, X. Qo'chqarov, N.N. Polyanskiy va D. Suyunovaning fikrlarini tahlil qilgan.

Tadqiqotchining fikricha, U. To'xtasheva o'z ilmiy tadqiqotlarida "ushbu sudlar o'zlarining faoliyatida "taftish" tamoyillari mavjudligi bilan belgilanadigan nazorat vakolatlariga ham ega. Yuqori instansiya sudlari shikoyat va protestlar asosida ishni ko'rib chiqayotganda nafaqat birinchi instansiya sudlari tomonidan qonunga rioya etilishini tekshiradi, balki nazorat funksiyalarini ham amalga oshiradilar", – degan fikrlarini tahlil qilgan. Ushbu ta'rifda keltirilgan "taftish" tamoyillari o'sha paytda amalda bo'lgan apellatsiya instansiyasi haqidagi plenum qarorida keltirilishining sababi va yuqori instansiya sifatida faqat apellatsiya va kassatsiya instansiya sudlari mavjud edi, shu sababli apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudi yo'l qo'ygan xatolarni to'g'rilash uchun asosiy bosqich vazifasini o'tashini anglatishi va ishni har tomonlama ko'rib chiqishi uchun shunday atamadan foydalanilgan. Ammo bugungi kunda taftish instansiyasi ham mavjud va asosan, u nazorat funksiyasini amalda bajarishi to'g'ri bo'lishi, apellatsiya instansiyasi esa amalda asosiy "ishchi" instansiya bo'lishi kerak va bu atama ayrim anglashmovchiliklarga sabab bo'lmoqda.

Dissertant yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, "reviziya" tamoyili deya keltirilgan nazorat funksiyasini "har tomonlama tekshirish" tamoyili deya o'zgartirishni va "apellatsiya instansiyasi sudi" tushunchasiga ta'rif berishni taklif etadi.

Dissertatsiyada O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligida apellatsiya instansiyasi sudining rivojlanish tarixi, shu jumladan jinoyat protsessida sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish institutining genezisi asosida apellatsiya instansiyasi sudining jinoyat-protsessual qonunchiligidagi o'rnini o'rganish zarurati, tarixni bilmasdan turib, ushbu institutni huquqiy tartibga solishdagi o'ziga xosliklarni to'liq hisobga olish va ulardan foydalanish uchun barcha ijobiy jihatlarni e'tiborga olish mumkin emasligidan kelib chiqib, muallif apellatsiya instansiyasi sudining paydo bo'lishidan hozirgi huquqiy tartibga solish holatigacha bo'lgan evolyutsiyasi huquqiy tahlil qilingan.

Jinoyat-protsessual qonunchiligida apellatsiya instansiyasi sudi boshlanguniga qadar jinoyat ishini tayinlash jarayoni mavjud. Lekin qonunda tayinlash jarayonida muhokama qilinadigan masalalar aniq ko'rsatilmagan. Shu sababli va shaxsning erkinlikka bo'lgan huquqlarini yanada ta'minlash maqsadida ushbu bosqichda apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan jinoyat ishini tayinlash uchun huquqiy hujjat qabul qilgan holda muhokama qilinayotgan masalalarni qonunda aniq ko'rsatilishi maqsadga muvofiq degan fikrlar mavjud. Jumladan, D.Suyunova birinchi instansiyada bu masalaga to'xtalib, qonunchilikda jinoyat ishini apellatsiya instansiyasi sudida ko'rish uchun tayinlash chog'ida mahkumga nisbatan qamoq

ehtiyot chorasini o'zgartirish masalasini muhokama qilish bo'yicha alohida jarayon tartibga solinmaganini ta'kidlagan.

Tadqiqotchi D.Suyunovning fikriga qo'shilgan holda ushbu masala mahkum hamda taraflar ishtirokida ko'rib chiqilsa, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari ta'minlanar edi deb hisoblaydi va sudya shaxsning erkinligi bilan bog'liq muhim masalani jinoyat ishini sudga tayinlash jarayonida ko'rib chiqishi uchun advokat tomonidan iltimosnoma kiritish huquqini berishni va uni jinoyat ishini apellatsiya instansiyasi sudiga tayinlash jarayonida yakka tartibda, taraflar ishtirokida ko'rib chiqilishi taklifini ilgari suradi va ushbu taklif orqali qamoqqa olish tariqasidagi ehtiyot chorasi muddatiga e'tibor berilmagan jihatlar bartaraf etilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat darajasida himoya qilinishiga xizmat qiladi deb hisoblaydi.

JPK 480-moddasida apellatsiya shikoyati (protest)ida bir qator talablar ko'rsatilishi kerak deb belgilangan. Ammo qonun va O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2024-yil 25-mart sanasidagi 7-sonli "Jinoyat ishlarini apellatsiya va kassatsiya tartibida ko'rish amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qarorida belgilangan talablar ayrim munozaralarga sabab bo'ladi. Chunki huquqiy ilmga ega bo'lmagan oddiy fuqaro tomonidan ushbu talablarga javob beradigan shikoyat yozishga qiynalishi mumkinligi, shuningdek, ayrim hollarda qonunda nazarda tutilgan barcha talablarni bajarish imkoniyati bo'lmasligi mumkin.

Ushbu holatda tadqiqotchining fikricha, ushbu talablarni pasaytirish shart emas, ushbu talablarni bajarish jarayonida masala yanada oydinlashadi, shikoyat beruvchi e'tibor bermagan jihatlariga e'tibor qaratadi va apellatsiya instansiyasi sudi muhokamasida o'z shikoyatini asoslashi osonlashadi. Talablarni bajarishga yolg'iz o'zi qiynaladi deb vaj keltirganlarga JPKning 51-moddasi 9-bandida belgilangan apellatsiya, kassatsiya va taftish instansiyalari sudi tomonidan ko'riladigan ishlarda himoyachi ishtirok etishi shartligi normasini eslatish kifoya. Yuqori yuridik ko'nikma va bilimlarga ega bo'lgan himoyachi bilan ta'minlangan fuqaroda shikoyat talablarini bajarishda qiyinchilik bo'lmaydi deb hisoblaydi.

Dissertant inson huquqlarini, ayniqsa, shaxslarni shikoyat qilish huquqini ta'minlashda apellatsiya instansiyasi sudining ahamiyatini oshirish maqsadida taraflarning shikoyat qilish huquqini saqlab qolgan holda birinchi instansiya sudi muhokamasida prokuror davlat ayblovidan voz kechishi natijasida oqlov hukmi chiqarilgan hollarda yuqori turuvchi prokuror (uning o'rinbosari) oqlov hukmini bekor qilish to'g'risida protest bildirishi mumkin emasligi taklifini ilgari suradi, chunki birinchi instansiya sudida xulosa qilgan prokuror o'z fikrini yagona markazlashgan prokuratura nomidan taqdim etgan deb hisoblash mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Jinoyat protsessida apellatsiya instansiyasi sudining huquqiy maqomi**" deb nomlanib, unda jinoyat ishini qayta ko'rib chiqishda apellatsiya instansiyasi sudining mazmuni va mohiyati, apellatsiya instansiyasi sudida jinoyat ishini ko'rib chiqishning protsessual tartibi, sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliligini tekshirishda apellatsiya instansiyasi sudining huquqlari va vakolatlari batafsil tahlil qilib chiqilgan.

Jinoyat-protsesual qonunchiligiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan chiqarilgan hukm ustidan apellatsiya tartibida shikoyat (protest) bildirilsa, jinoyat ishi 5 nafar Oliy Sud sudyalari tarkibida ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘atida 22 nafar sudya faoliyat yuritishini e‘tiborga oladigan bo‘lsak (ayrim hollarda vakansiya joylari e‘tiborga olinishi kerak), ulardan jinoyat ishini birinchi instansiya sudida ko‘rgan uch nafar sudya hamda ishni apellatsiya tartibida ko‘rgan besh nafar sudya, agar jinoyat ishi keyingi instansiyalarda ko‘riladigan bo‘lsa, sakkiz nafar sudya ishtirok eta olmaydi (JPK 76-m.).

Tadqiqotchi Oliy Sud tomonidan jinoyat ishi bo‘yicha birinchi instansiya sifatida chiqargan hukm apellatsiya tartibida qayta ko‘rilayotganda sudlov hay‘ati tarkibi besh nafar sudya emas, balki uch nafar sudya tarkibida ko‘rib chiqilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bunda jinoyat ishi keyingi instansiyalarda beg‘araz, xolis, adolatli ko‘rib chiqiladi deb hisoblaydi.

Mazkur bobda jinoyat ishi bo‘yicha sud qarorlarini apellatsiya tartibida qayta ko‘rib chiqish mazmuni va mohiyatiga e‘tibor qaratilib, milliy olimlarimizdan Z. Inog‘omjonova, N.I. Xayriyev, D.J. Suyunova, D.B. Bazarova, D. Aripov, O. Ahmadjonov, S.A. Rustamovlarning fikrlari tahlil qilinib, apellatsiya instansiyasi sudi mazmuni va mohiyatiga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan.

Dissertant yuristlar orasida muhokamaga sabab bo‘lgan “Yarashuv institutini apellatsiya instansiyasi sudiga joriy etish lozimmi?”, degan munozarali savol yuzasidan o‘z fikrini bildirib, yarashuv institutini faqat birinchi instansiya sudida, sud maslahatxonaga kirgunga qadar qo‘llash mumkinligi, keyinchalik, apellatsiya instansiyasi sudi jarayonida mazkur institutning qo‘llanishi maqsadga muvofiq emasligi, chunki apellatsiya instansiyasi sudida ko‘rilayotgan predmet jinoyat, ya‘ni jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanishi haqida xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi jinoyat ishlarini o‘rganish natijasida qonunchiligimizda apellatsiya instansiyasi sudida jinoyat ishi yuzasidan ma‘ruza qilayotgan sudya alohida protsessual maqomga ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, amaliyotda bu sudya “ma‘ruzachi sudya” deb atalishini ko‘rsatgan. Shu sababli dissertant apellatsiya instansiyasi sudi jarayonida jinoyat ishi materiallarini ma‘ruza qilayotgan sudya – apellatsiya instansiyasi sudining sudlov hay‘ati a‘zosiga – “ma‘ruzachi sudya” mualliflik ta‘rifini ishlab chiqqan.

Sudga qadar bosqichda prokuror nazoratchi organ hisoblanadi. Birinchi instansiya sudida esa prokuror nazorat funksiyasini emas, balki jinoyat ishiga nisbatan davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlash funksiyasini bajaradi. Shuning uchun sudda prokuror taraflar tortishuvi prinsipi asosida taraf sifatida ishtirok etadi. Apellatsiya instansiyasi sudida esa prokurorning sudda ishtirok etishining faqat tashkiliy jihati nazarda tutilgan (JPK 497¹⁶-m.). Ammo muallif jinoyat ishi apellatsiya instansiyasi sudi jarayonida ko‘rilayotganda prokurorning protsessual vakolatlari aniq belgilanishi lozim deb hisoblaydi. Qonun apellatsiya instansiyasi sudi vakolatiga yangi ayblov yoki oqlov hukmi chiqarish vakolatini belgilagan, shu sababli dissertant apellatsiya instansiyasi sudida ishtirok etuvchi prokuror nafaqat, apellatsiya shikoyati (protest)ga munosabat bildirishi, balki yangi ayblov yoki oqlov

yuzasidan ham davlat ayblovchisi sifatida o'z munosabatini bildirishi lozim, deb hisoblaydi.

Tadqiqotchining fikricha, prokurorning protesti ayni bir vaj bo'yicha, masalan, jazoning adolatsizligi yuzasidan berilishi mumkin, davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaganda prokuror butun ish bo'yicha xulosa qiladi. Apellatsiya protestini bildirgan prokuror og'irlashtiruvchi tomonga protest doirasidan chiqolmaydi. Dissertant appellatsiya instansiyasi sudi ishni har tomonlama, to'liq sud tergovini o'tkazishidan kelib chiqqan holda yangi hukm qabul qiladigan holatlarda prokuror muzokaraga chiqadi va unda protestdan kelib chiqib emas, butun ish yuzasidan kelib chiqib davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydi.

Dissertant prokurorning appellatsiya instansiyasi sudida taraf sifatida ishtirok etishidan kelib chiqib (JPK 497¹⁶-m.), uning vakolatini birinchi instansiya sudidagi prokuror vakolatlari bilan tenglashtirish taklifini ilgari surib, toki u o'z protestini ham qo'llab-quvvatlay olish, ham davlat ayblovini quvvatlash vakolatiga ega bo'lishini taklif etgan.

Shuningdek, tadqiqotchi yuqoridagi holatni tahlil qilishni davom ettirib, yana bir jihatga e'tibor qaratadi. O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun mazmuniga ko'ra, prokuratura tizimi yagona markazlashgan tizim bo'lib barcha prokurorlar yagona tuzilma doirasida faoliyat yuritadi va bir xil qoidalarga bo'ysunadi. Shu sababli muallifning fikricha, agar jinoyat ishini birinchi instansiyada ko'rib chiqishda prokuror davlat ayblovidan voz kechgan bo'lsa va bu oqlov hukmiga olib kelgan bo'lsa, yuqori turuvchi prokuror oqlov hukmini bekor qilish to'g'risida protest keltirishga haqli emas, chunki birinchi instansiya sudida prokurorning xulosasi prokuraturaning yagona markazlashgan tizimi nomidan qabul qilingan deb hisoblaydi.

Dissertatsiya muallifi JPKning 481, 497¹⁶-moddalariga e'tibor qaratib, bunda prokurorning jinoyat ishini appellatsiya instansiyasi tomonidan ko'rib chiqilishida ishtirok etishiga oid tashkiliy masalalar ko'zda tutilganligini tahlil etgan. Shu bilan birga, muallifning fikriga ko'ra, prokurorning appellatsiya sudida ishtirok etishining huquqiy va protsessual vakolatlari ham tartibga solinishi kerak.

Qonunga ko'ra, jinoyat ishini appellatsiya instansiyasida ko'rish muddati uni ko'rish boshlangan kundan boshlab uch oydan oshmasligi kerak. Dissertant appellatsiya shikoyatidan keyin hukmning ijrosi to'xtatilishi, mahkum jazoni o'tash uchun koloniyaga yuborilmasligi, tergov hibsonasida saqlanishi holatini tahlil qiladi. Jinoyat ishini appellatsiya instansiyasi sudi tomonidan ko'rib chiqish uchun uch oylik muddatning uzaytirilishi mahkumning og'ir ahvolini yanada og'irlashtiradi va qoida tariqasida, uning erkinlik huquqini buzadi. Bu muallifning fikricha, jinoyat ishini appellatsiya sudi tomonidan ko'rib chiqish muddatini uzaytirish bo'yicha istisno holatlarni belgilash uchun asos bo'ladi.

Tadqiqotchi appellatsiya instansiyasi sudining vakolatlariga to'xtalib, mahkumga nisbatan yangi ayblov e'lon qilingan yoki yangi shaxs ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etish uchun jalb etilgan holatlarda, appellatsiya instansiyasi sudi tomonidan sud hukmi bekor qilinishi va ish yangidan birinchi instansiya sudiga qayta ko'rish uchun yuborilishi vakolatiga to'xtalib ushbu holat sud islohotlari

davomida belgilangan “Bir sud – bir instansiya” tamoyiliga to‘g‘ri kelmasligi va bu vakolat JPK 497²⁶-moddasi 6-bandidan chiqarilishi taklifini bildirgan.

Qonunda JPK 497²⁶-moddasida apellatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hukmini bekor qilib, yangi oqlov yoki ayblov hukmi qabul qilish vakolatiga ega. Dissertantning fikricha, bu ayblov xulosasidan keyin dastlabki qaror qabul qilish bilan teng, chunki birinchi instansiya sudining hukmi bekor qilinadi va ish ayblov xulosasi bosqichiga qaytariladi. Qonunga ko‘ra, yangi apellatsiya hukmi ustidan taftish tartibida bevosita yuqori sudga shikoyat qilinadi. Tadqiqotchining fikricha, taraflarga bunday hukm ustidan boshqa apellatsiya sudiga shikoyat qilish imkoniyati berilishi kerak, bu esa shaxslarning dastlabki hukm ustidan shikoyat qilish huquqidan to‘g‘ri foydalanishini ta‘minlaydi.

Tadqiqotchi apellatsiya instansiyasi sudi tomonidan qabul qilingan yangi hukm protsessual hujjat sifatida birinchi instansiya tomonidan qabul qilingan hukm bilan teng bo‘lib, unga nisbatan ham boshqa tarkibdagi apellatsiya instansiyasi sudiga shikoyat qilish imkoniyatini berish va bu orqali shaxslarga o‘z huquqlarini himoya qilish uchun tegishli tartibda shikoyat qilish huquqidan foydalanish imkonini berish lozim deb hisoblaydi.

Dissertatsiyada ta‘kidlanganidek, qonunda hukm O‘zbekiston Respublikasi nomidan e‘lon qilinishi belgilab qo‘yilgan. Birinchi instansiya hukmini bekor qilish va yangi hukm chiqarishda apellatsiya instansiyasi sudi ikkita qaror qabul qiladi: hukmni bekor qilish to‘g‘risidagi ajrim va yangi hukm. Shu bilan birga, apellatsiya instansiyasining yangi hukmi mustaqil huquqiy hujjat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqarilishi shart. Shu bilan birga, qonun hujjatlarida apellatsiya sudi tomonidan chiqarilgan bitta qaror ko‘rsatilgan bo‘lib, dissertatsiya muallifining fikricha, u o‘zgartirilishi kerak, chunki birinchi instansiya sudining hukmi bekor qilingan taqdirda ikkita hujjat berilishi kerak.

Dissertatsiyaning **“Apellatsiya instansiyasi sudida ish yuritishni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida ayrim xorijiy davlatlarning jinoyat protsessida apellatsiya instansiyasi sudining huquqiy ahamiyati, odil sudlovni amalga oshirishda apellatsiya instansiyasi sudining roli, sud qarorlarini apellatsiya instansiyasi sudida qayta ko‘rib chiqish mexanizmini zamonaviy yangilash kabi jihatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotidagi muammoli vaziyatlar aniqlangan va ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar, jinoyat ishlari yurituviga oid milliy qonunchilikni takomillashtirish istiqbollarning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Sud qarorlarini qayta ko‘rish bilan bog‘liq qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganishda xorijiy mamlakatlarning tajribasini o‘rganish bu boradagi tushuncha va tasavvurlarning kengayishiga hamda mavjud muammolarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Ta‘kidlash lozimki, dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarning jinoyat protsessida yuqori instansiya sudlarida ish yuritish instituti mavjud.

Dissertant tomonidan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Rossiya, Qozog‘iston, Belarus, Qirg‘iziston Respublikasi, Turkmaniston, Ukraina, Moldova, Ozarbayjon,

Armaniston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiliklarida yuqori instansiyada ish ko'ruvchi sudlar tahlil etilgan.

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari mazkur sohaga oid ilmiy xulosa chiqarishga imkon beradi. Xorijiy jinoyat-protsessual qonunchiligi juda ko'p o'xshashliklarga ega. Bu holat nafaqat jinoyat-protsessual huquqining butun sohasida, balki uning alohida institutlarida, xususan, hukmlarni qayta ko'rib chiqish tartibini belgilaydigan normalar to'plamini rivojlantirishning obyektiv umumiy qonuniyatlarida ham namoyon bo'ladi. O'xshash tomonlari bilan birga, protsessual masalalardagi bir qator farqli jihatlar ham mavjud bo'lib, sud hukmini apellatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish jarayonini tartibga solishning umumiy prinsiplarini ko'rsatadi. Mazkur bobda yana bir qator mamlakatlarning tajribasi tahlil qilingan hamda amalga oshirilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, muallif tomonidan qator ilmiy, nazariy va amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Tadqiqotchi sud jazolovchi organ emas, balki odil sudlovni, adolatni ta'minlovchi organ ekanligidan kelib chiqib, birinchi instansiya sudida o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha ko'rilayotgan jinoyat ishlarida xalq maslahatchilaridan foydalanilganidek, apellatsiya instansiyasi sudining ham yangi hukm chiqarish vakolatini e'tiborga olib, ushbu instansiyada ham bu toifadagi ishlarda katta hayotiy tajribaga ega xalq maslahatchilaridan foydalanish o'rinli deb hisoblaydi.

Dissertant tadqiqot ishida apellatsiya tartibida ishda taraf bo'lmagan shaxslar sud hukmining o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qismi ustidan shikoyat bergan holatlarni tahlil qilgan. Unga ko'ra, apellatsiya instansiyasi sudi jinoyat ishi holatlarini o'rganib chiqib, asos mavjud bo'lganda ularni fuqaroviy da'vogar va fuqaroviy javobgar deb tan olish haqida ajrim chiqarilishi boshqa normalarni buzish-buzmasligi haqidagi bahsli fikrlarga munosabat bildirilgan.

Dissertant apellatsiya va kassatsiya instansiyalarining funksiyalari, ularning hukmi qayta ko'rishdagi o'rniga to'xtalib, B. Mirenskiy, X. Kuchkarov, U.A. Tuxtasheva va D.D. Vaxabovlarning fikrlarini tahlil qilgan. Tadqiqot natijasida ularning fikrlaridagi muhim va farqli jihatlariga asoslanib, apellatsiya va kassatsiya instansiyalarining har biri sud tizimida alohida o'ringa ega, degan xulosaga kelgan.

